“Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanishning hozirgi holati va istiqbollari” mavzusida konferensiya o’tkazildi


Joriy yil 6-7-sentyabr kunlari O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti hamkorligida “Boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanishning hozirgi holati va istiqbollari” mavzusida konferensiya o’tkazildi. Mazkur konferensiya O’zbekistonda kibernetika sohasi asoschisi, akademik Vosil Qobulov tavalludining 100 yilligiga bag’ishlandi.




Unda respublikamiz va xorijiy davlatlardan 120 ga yaqin olimlar, soha mutaxassislari va yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Konferensiyani akademik M.Kamilov hamda Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Mirzayevlar ochib berdilar va konferensiya ishiga muvafaqqiyat tiladilar.

Ikki kun davom etgan konferensiya ishida akademik V.Qobulovning ilmiy va ilmiy-tashkiliy faoliyati, uning kibernetika, mexanika, informatika, texnika fanlari rivojlanishiga qo’shgan hissasi, O’zbekistonda raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarni rivojlantirish hamda ulardan foydalanish samaradorligi, istiqboldagi rejalarga bag’ishlangan ma’ruzalar tinglandi va muhokama qilindi. Konferensiyada qilingan ma’ruzalar 2 jildli to’plamda nashr qilindi.







Mazkur konferensiyada ko’tarilgan masalalar boshqaruvda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish hamda keng joriy qilishda katta ahamiyatga ega. Zero, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida ilg’or texnologiyalarni rivojlantirish muhimdir.

Konferensiya so’nggida akademik V.Qobulovning shogirdlari ular haqidagi yorqin xotiralari bilan o’rtoqlashishdi.

Ma’lumot o’rnida: Qobulov Vosil Qobulovich 1921-yil 5-sentyabrda Toshkent shahrida tug’ilgan. 1938-yili o’rta maktabni bitirib, O’rta Osiyo davlat dorilfununining mexanika-matematika kulliyotiga o’qishga kirgan. 1941-yili armiya safiga xizmatga chaqirilishi munosabati bilan dorilfununda o’qish to’xtatilgan. 1941-1945-yillarda V.Q.Qobulov Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo’lgan. 1945-yil urushdan qaytgach, o’qishni Toshkent temir yo’li transporti muhandislari oliygohida qurilish kulliyotida davom ettirgan. 1948-yili o’qishni tugatib Chorjo’y-Qo’ng’irot temir yo’li qurilishida ishlagan. 1950-yil aspiranturaga o’qishga kirgan.

1952-yili “To’g’ri burchakli yassi plastinkaning tekis tarang holatini hisoblashning ba’zi bir usullari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1961-yili esa Moskva davlat universiteti Ilmiy Kengashida “Elastiklik va plastiklik dinamik nazariyasining bir o’lchovli va ikki o’lchovli ba’zi bir masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu dissertatsiya fanda yangi yo’nalish bo’lib, algoritmik mexanikaga asos solgan.

Fanlar akademiyasi va bir necha oliy o’quv yurtlarida Kibernetika va mexanika sohasi bo’yicha bir necha ilmiy maktablar yaratgan hamda 50 dan ortiq doktorlik va 70 dan ortiq nomzodlik ilmiy ishlariga rahbarlik qilgan.

Atoqli olim xalq xo’jaligining turli sohalarida foydalanish uchun algoritmlashning nazariy asoslarini yaratish va amaliyotga tadbiq qilishga salmoqli hissa qo’shdi. Uning muhit mexanikasi masalalarini yechishni algoritmlash, inshootlarning zilzilaga bardoshliligi, hisoblash matematikasi muammolarini hal qilish masalalariga bag’ishlab yozgan 500 ga yaqin maqola va 20 dan ortiq monografiyalari keng jamoatchilikka yaxshi ma’lum.

Zahmatkash olim o’z faoliyati davomida jonkuyar ustoz sifatida ko’plab yoshlarga ilm-fan sirlaridan saboq berdi. Akademik V.Qobulovning mamlakatimiz fani rivojiga qo’shgan hissasi davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, “O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan fan arbobi”, “O’zbekiston Respublikasi davlat mukofoti”, “El-yurt hurmati” ordeniga sazovor bo’lgan.